

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA KONCHILIK TERMINLARINING UMUMLISONIY VA SOHAVIY XUSUSIYATLARI

Xakimova Dilrabo Yo'ldoshovna,
Renessans ta'lim universiteti, katta o'qituvchisi
E-mail: d.hakimova1971@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va fransuz tillarida konchilik terminlarining umumlisoniy hamda sohaviy xususiyatlari qiyosiy aspektida tahlil qilinadi. Terminlarning tilning leksik tizimidagi o'rni, umumiste'mol birliklarning termin maqomiga o'tish jarayoni, terminning aniqlik, monosemantiklik, tizimlilik va definitsiyaga tayanuvchanlik kabi asosiy belgilari yoritiladi. Tadqiqotda konchilik terminlarining semantik torayish, kontekstual ixtisoslashuv va struktur yasalish xususiyatlari o'zbek hamda fransuz tillari misolida ochib beriladi. Ayniqsa, "tosh", "qavat", "portlash", "shaxta", "karer", "flotatsiya", "rud/minerai" kabi birliklarning umumtil va sohaviy qo'llanishdagi farqlari tahlil qilinadi. Shuningdek, fransuz tilidagi yunon-lotin asosli prefiks va suffikslar hamda o'zbek tilidagi o'zlashma va mahalliy terminlarning o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Elektron lug'atlar va milliy korpuslarning terminologik tadqiqotlardagi ahamiyati ham alohida baholanadi. Tadqiqot natijalari konchilik terminologiyasini tizimlashtirish, standartlashtirish va ikki tilli terminografik ishlarni takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, konchilik terminlari, umumlisoniy xususiyat, sohaviy xususiyat, semantik torayish, definitsiya, o'zbek tili, fransuz tili, elektron lug'at, til korpusi, terminologik tizim.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ общелексических и отраслевых особенностей горнодобывающей терминологии на узбекском и французском языках. Рассматривается место терминов в лексической системе языка, процесс перехода общеупотребительных единиц в разряд терминов, а также основные признаки терминов: точность, моносеманτικότητα, системность и опора на определение. В исследовании раскрываются такие особенности горнодобывающих терминов, как семантическая суженность, контекстуальная специализированность и структурная формируемость на примере узбекского и французского языков. Особое внимание уделяется анализу различий в общелексическом и отраслевом употреблении единиц типа «tosh» (камень), «qavat» (слой), «portlash» (взрыв), «shaxta» (шахта), «karer» (карьер), «flotatsiya» (флотация), «rud/minerai» (руда). Кроме того, рассматриваются взаимосвязи греко-латинских префиксов и суффиксов во французском языке с заимствованными и местными терминами узбекского языка. Особая оценка дается значению электронных словарей и национальных корпусов в терминологических исследованиях. Результаты исследования могут служить научной основой для систематизации и стандартизации горнодобывающей терминологии, а также совершенствования двуязычных терминографических работ.

Ключевые слова: термин, терминология, горнодобывающая терминология, общелексические особенности, отраслевые особенности, семантическая суженность, определение, узбекский язык, французский язык, электронный словарь, корпус языка, терминологическая система.

Abstract. This article presents a comparative analysis of general and domain-specific characteristics of mining terminology in Uzbek and French. It examines the place of terms in the lexical system, the process of general-use units transitioning into terms, and the main features of terms such as precision, monosemanticity, systematicity, and definitional support. The study highlights the semantic narrowing, contextual specialization, and structural formation of mining terms using examples from Uzbek and French. Particular attention is given to the differences between general and domain-specific usage of units like "tosh" (stone), "qavat" (layer), "portlash" (explosion), "shaxta" (mine), "karer" (quarry), "flotatsiya" (flotation), and "rud/minerai" (ore). Additionally, the relationships between Greek-Latin prefixes and suffixes in French and borrowed or native Uzbek terms are explored. The significance of electronic dictionaries and national corpora in terminological research is also assessed. The results provide a

scientific basis for the systematization and standardization of mining terminology, as well as for improving bilingual terminographic work.

Keywords: *term, terminology, mining terminology, general characteristics, domain-specific characteristics, semantic narrowing, definition, Uzbek language, French language, electronic dictionary, language corpus, terminological system.*

Kirish. Til jamiyat hayoti bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida doimo harakatda bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnika yutuqlari, ishlab chiqarishning kengayishi hamda texnologik yangilanishlar, avvalo, tilning leksik qatlamida, ayniqsa, terminologik tizimida o‘z aksini topadi. Shu ma’noda terminlar fan, texnika va kasbiy faoliyatga oid maxsus tushunchalarning nomi sifatida alohida ahamiyatga ega. Zero, har qanday fan yoki ishlab chiqarish tarmog‘ining shakllanishi va rivojlanishi o‘z terminologik apparatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Dunyo tilshunosligida terminologiya mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllangan bo‘lib, Vena terminologiya maktabi, Rossiya terminologiya maktabi, Praga terminologiya maktabi kabi ilmiy yo‘nalishlar terminning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Xalqaro miqyosda esa INFOTERM, TERMNET, ISO kabi tuzilmalar terminlarni standartlashtirish, tartibga solish va ularning ilmiy muomaladagi aniqligini ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Xususan, ISO 704 terminologik ishning asosiy tamoyillarini belgilovchi muhim xalqaro standart sifatida tan olingan.

Konchilik terminologiyasi maxsus terminologik tizimlarning muhim qismlaridan biri bo‘lib, u foydali qazilmalarni qidirish, qazib olish, qayta ishlash va ularning geologik xususiyatlarini ifodalovchi birliklarni o‘z ichiga oladi. Mazkur tizimda nafaqat bevosita sohaga xos terminlar, balki umumtil leksikasidan semantik torayish asosida termin maqomiga o‘tgan birliklar ham faol qo‘llanadi. Shu jihatdan o‘zbek va fransuz tillaridagi konchilik terminlarini qiyosiy o‘rganish ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, terminologik tizimning ichki qonuniyatlarini ochish hamda zamonaviy terminografik ishlarni takomillashtirish nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o‘zbek va fransuz tillaridagi konchilik terminlarining umumlisoniy va sohaviy xususiyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy-tipologik, semantik va struktural tahlil metodlaridan foydalanildi. Terminlarning umumiste’mol leksikadan termin maqomiga o‘tish jarayoni semantik torayish va kontekstual ixtisoslashuv nuqtayi nazaridan o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili. Terminologiya masalalari o‘zbek va jahon tilshunosligida keng o‘rganilgan. Xususan, Sh. Ko‘shimov va X. Narxodjaeva ishlarida terminning lingvistik tabiati, uning kasbiy-kognitiv funksiyasi hamda asosiy belgilari yoritilgan. E. Begmatov, Q. Sodiqov va H. Ne’matovlar tomonidan o‘zbek terminologiyasining shakllanishi, rivojlanishi va tizimlashuvi masalalari ilmiy asosda tadqiq etilgan.

Xalqaro terminologiya nazariyasida M.T. Cabré terminologiyani mustaqil ilmiy soha sifatida asoslab, uning metodologik tamoyillarini ishlab chiqqan. A. Rey termin va tushuncha

o'rtasidagi munosabatni izohlab, terminologik birliklarning semantik asoslarini ochib bergan. P. Lerat esa maxsus tillar va terminlarning funksional xususiyatlarini tahlil qilgan.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda termin tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Sh. Ko'shimov termini kasbiy ma'no bildiruvchi, muayyan kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi, ma'lum obyektlar hamda ular o'rtasidagi aloqalarni kasbiy bilish va o'zlashtirish jarayonida qo'llanadigan so'z yoki birikma sifatida talqin qiladi. Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, terminning asosiy xususiyati uning kasbiy-kognitiv funksiyasi bilan belgilanadi.

X. Narxodjaeva esa terminning quyidagi muhim belgilarini ta'kidlaydi: birinchidan, termin umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi qismi bo'lgan fan, ishlab chiqarish va texnika tiliga mansub birlikdir; ikkinchidan, u aniq narsa, predmet yoki mavhum tushunchaning maxsuslashtirilgan nomidir; uchinchidan, termin uchun definitsiya zarur bo'lib, aynan shu ta'rif orqali u boshqa tushunchalardan ajratiladi va muayyan tasnifiy qatorga joylashtiriladi.

Demak, termini oddiy so'zdan ajratib turuvchi mezonlar quyidagilardan iborat: aniq ma'no, sohaviy xoslik, tizimlilik, definitsiyaga asoslanish, semantik chegaralanganlik va kontekstual barqarorlik. Umumtil birliklari ko'p ma'noli, obrazli va kontekstga ko'ra kengayuvchi bo'lsa, termin ma'lum sohada tor, aniq va bir maqsadga yo'naltirilgan mazmunga ega bo'ladi.

Konchilik terminologiyasida ko'plab birliklar umumiste'mol leksikadan kelib chiqqan. Bunday o'tish jarayoni, asosan, semantik torayish va sohaviy kontekst asosida yuz beradi. Masalan, o'zbek tilidagi tosh so'zi kundalik nutqda qattiq modda, qurilish materiali, hatto ko'chma ma'noda "tosh yurak" kabi birikmalarda qo'llanadi. Biroq konchilik terminologiyasida u "tog' jinsi", "qattiq qazilma" yoki qazib olish jarayonida qarshilik ko'rsatuvchi jins ma'nosini ifodalaydi. Shunday qilib, umumiy leksik birlik maxsus sohada aniq definitsiyaga ega termin sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Fransuz tilidagi pierre va roche birliklari ham shu jihatdan e'tiborlidir. Pierre umumtil birlik sifatida "oddiy tosh", "qurilish materiali", "qimmatbaho tosh" kabi ma'nolarda ishlatilsa, roche geologik va konchilik kontekstida tog' jinsi, geologik qatlam, mineral tarkibli qatlam ma'nosida qo'llanadi. Bu holat termin maqomini belgilovchi muhim tamoyilni ko'rsatadi: umumtil birlik termin darajasiga ko'tarilishi uchun sohaviy aniqlik va ilmiy tavsif zarur.

Xuddi shunday hodisani o'zbek tilidagi qavat va fransuz tilidagi couche birliklarida ham ko'ramiz. Kundalik nutqda qavat bino qavati, ustma-ust joylashgan qator ma'nolarini ifodalasa, konchilikda "geologik qavat", "rud qavati", "ko'mir qavati" kabi terminologik mazmun kasb etadi. Fransuz tilida couche de peinture umumtil ifodasi bo'lsa, couche minérale yoki couche géologique maxsus sohaviy termin sifatida qo'llanadi. Demak, terminlashuv jarayonida semantik hajm torayadi, lekin tushunchaviy aniqlik kuchayadi.

Konchilik terminlari “foydali qazilma va ularni qazib olish jarayoni” integral semasi asosida birlashadigan maxsus leksik maydonni tashkil etadi. Bu maydonning ichida qidiruv, qazib olish, portlatish, boyitish, geologik qatlamlar, texnik vositalar, mexanizmlar, xavfsizlik, gidrotexnik va metallurgik jarayonlar bilan bog‘liq ko‘plab terminlar o‘zaro tizimli munosabatda bo‘ladi.

Masalan, kon sanoati, kon qazib olish sanoati, tub jinslar, ustama jinslar, qatlam, shaxta, karer, rud, boyitish, portlatish, qazib olish kabi birliklar bir butun tushunchalar tizimining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ularning barchasini birlashtirib turuvchi asosiy arxisema “foydali qazilmaga aloqadorlik”dir. Shu bilan birga, bu tizim ichida turli kichik semantik guruhlar ham mavjud: geologik terminlar, qazib olish texnologiyasi terminlari, boyitish jarayoni terminlari, qurilma nomlari, xavfsizlikka oid terminlar va boshqalar.

Konchilik terminosistemasida faqat shu sohaga xos bo‘lgan birliklar ham uchraydi. Jumladan, jelonka, ammiakli dinamitlar, anizotrop tog‘ jinsi, barometrik nivelirlash, kamerlab qazish tizimi, jinslarni sun‘iy muzlatish kabi terminlar bevosita maxsus kasbiy kontekstda qo‘llanadi. Bunday birliklar umumtilga nisbatan nihoyatda tor qo‘llanish maydoniga ega. Boshqa tomondan, portlash, zaryadlash, kamera, quduq, namlik, qolip, pech, quvur kabi so‘zlar umumtil leksikasida ham mavjud, biroq konchilikda ular maxsus mazmun bilan to‘ldiriladi.

O‘zbek va fransuz tillarida konchilik terminlarining yasalişhida muayyan farqlar mavjud. O‘zbek tilida terminlarning bir qismi milliy til imkoniyatlari asosida yasalgan bo‘lsa, salmoqli qismi rus tili vositasida o‘zlashgan xalqaro birliklar hisoblanadi. Fransuz tilida esa terminlar, asosan, yunon va lotin ildizlari, prefiks va suffikslar asosida shakllanadi. Bu holat fransuz terminologiyasining morfologik aniqligini, o‘zbek terminologiyasining esa o‘zlashma va moslashtirish xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Masalan, fransuz tilidagi *antécouche* termini *anté-* prefiksi yordamida “oldingi, quyi qatlam” ma’nosini ifodalaydi. *Polymétallique* birligi *poly-* elementi orqali “ko‘p metall rudasi” tushunchasini beradi. *Sous-sol* tarkibidagi *sous-* prefiksi yer osti, ostki joylashuv ma’nosini anglatadi. *Hydrométallurgie*, *thermométallurgie*, *biominéralisation*, *cryominéral*, *paléominéral*, *néoformation* kabi birliklarda esa *hydro-*, *thermo-*, *bio-*, *cryo-*, *paléo-*, *néo-* singari morfemalar terminning semantik yo‘nalishini oldindan belgilab beradi.

Bu jihatdan fransuz tilidagi terminologik modellarda komponentlarning semantik shaffofligi yuqori. O‘zbek tilida esa bunday terminlar ko‘pincha tarjima, yarim kalkalash yoki moslashtirilgan o‘zlashma shaklida ifodalanadi: *hydrométallurgie* – gidrometallurgiya, *thermométallurgie* – termometallurgiya, *biominéralisation* – biominerallashuv, *polymétallique* – ko‘p metall rudasi, *sous-sol* – yer osti. Demak, o‘zbek tilida semantik izoh ko‘proq birikma yoki sintaktik kengayish orqali beriladi, fransuz tilida esa morfologik kodlash ustunlik qiladi.

Konchilik terminologiyasining muhim jihatlaridan biri uning ko'p qatlamli etimologik tarkibga egaligidir. O'zbek tilidagi ko'plab terminlar xalqaro ilmiy muomalaga rus tili vositasida kirib kelgan. Masalan, flotatsiya termini lotincha ildizdan fransuz tilidagi flottation shakliga, undan rus tiliga, so'ng o'zbek tiliga o'tgan. Bu termin boyitish jarayonida havoli muhit orqali ajratish texnologiyasini ifodalaydi va bugungi kunda o'zbek texnik matnlarida faol ishlatiladi.

Xuddi shuningdek, shaxta termini ham murakkab etimologik yo'lni bosib o'tgan. Fransuz tilidagi puits de mine birikmasi "kon qudug'i", "vertikal kirish yo'li" ma'nosini ifodalasa, o'zbek tilidagi shaxta termini ko'proq butun qazib olish inshooti yoki yer osti kon tizimini bildiradi. Bu misol bir qarashda ekvivalent birliklar o'rtasida ham semantik siljish va kengayish bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Karer termini ham shunday o'ziga xoslikka ega. O'zbek tilida u ko'pincha ochiq usuldagi qazib olish joyi ma'nosida qo'llanadi. Fransuz tilidagi carrière esa ayrim kontekstlarda qurilish toshi olinadigan joyni anglatadi, metall rudalari qazib olinadigan ochiq kon esa ko'proq mine à ciel ouvert shaklida ifodalanadi. Bu holat terminologik ekvivalentlik har doim mutlaq moslikni anglatmasligini, balki funksional va kontekstual moslikni talab qilishini ko'rsatadi.

O'zbek va fransuz tillaridagi konchilik terminlarining umumiy jihati shundaki, har ikkala tilda ham terminlar aniq tushunchani ifodalaydi, tizimli ravishda bir-biri bilan bog'lanadi va ilmiy-texnik kontekstda monosemantiklashishga intiladi. Har ikkala til terminologiyasida ham umumtil birliklarining terminlashuvi, xalqaro terminlarning o'zlashtirilishi va yangi texnologik jarayonlarga mos ravishda yangi birliklarning shakllanishi kuzatiladi.

Farqli jihat esa ularning lingvistik manbalari va yasaliş usullarida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida konchilik terminologiyasining sezilarli qismi ruscha vositachilik asosida kirib kelgan bo'lsa, fransuz tilida ichki morfologik resurslar, ayniqsa yunon-lotin prefiksalsuffiksals tizim ko'proq faollik ko'rsatadi. O'zbek tilida ko'plab terminlar izohli birikmalar orqali beriladi, fransuz tilida esa bitta murakkab so'z ko'pincha kengroq ilmiy ma'noni ifodalashga qodir bo'ladi.

Shuningdek, o'zbek tilida sheva elementlari yoki mahalliy kasbiy birliklarning terminologiyaga cheklangan darajada kirib kelishi kuzatilsa, fransuz terminologiyasida ingliz tilining zamonaviy texnik ta'siri seziladi. Bu esa har ikki til terminologiyasi oldida standartlashtirish, normallashtirish va ekvivalentlikni aniqlash kabi dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Zamonaviy terminologik tadqiqotlarda elektron lug'atlar va til korpuslari alohida ahamiyat kasb etadi. Elektron resurslar terminlarning ma'nosini tez topish, ularning real qo'llanilishini kuzatish, talaffuzini eshitish, tasviriy va grafik izohlar bilan boyitilgan holda

o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, ular yangi terminlarni operativ ravishda kiritish va yangilab borishga qulay platforma hisoblanadi.

O'zbek tilida "O'zbek tili milliy korpusi" terminlarning zamonaviy matnlarda qo'llanishini kuzatish, ularning semantik faolligi va funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Fransuz tilida esa Trésor de la Langue Française, Larousse, Lexique des sciences de la terre singari resurslar ilmiy va texnik terminlarni tahlil qilish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Masalan, o'zbek tilidagi rud va fransuz tilidagi minerai birliklarini elektron lug'at asosida qiyoslash ularning semantik yaqinligini ko'rsatadi. Biroq real matnlar korpusida ular qaysi birikmalar bilan, qaysi texnologik kontekstda va qaysi grammatik qoliplarda kelishini o'rganish terminning haqiqiy funksional profilini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli kelajakdagi terminologik izlanishlarda korpus lingvistikasi va raqamli terminografiyaga tayangan tadqiqotlar ayniqsa muhimdir.

Xulosa. O'zbek va fransuz tillarida konchilik terminlarining qiyosiy tahlili quyidagi ilmiy xulosalarga olib keladi.

Birinchidan, terminlar tilning maxsus qatlamini tashkil etuvchi, ilmiy va texnik tushunchalarni ifodalovchi ixtisoslashgan birliklar bo'lib, ularning shakllanishi jamiyat taraqqiyoti va fan-texnika rivoji bilan bevosita bog'liq.

Ikkinchidan, umumtil birliklarining termin maqomiga o'tishi asosan semantik torayish, sohaviy kontekst va definitsiyalash jarayoni orqali amalga oshadi. Tosh, qavat, portlash, quduq, kamera kabi birliklar buning yaqqol misolidir.

Uchinchidan, konchilik terminlari "foydali qazilma va uni qazib olish" integral semasi asosida yagona semantik maydonni hosil qiladi. Bu tizim ichida geologik, texnologik, mexanik va boyitish jarayonlariga oid kichik terminologik guruhlar shakllanadi.

To'rtinchidan, fransuz tilida konchilik terminlari ko'proq yunon-lotin asosli prefiks va suffiksalar orqali yasaladi, o'zbek tilida esa xalqaro terminlar asosan rus tili vositasida o'zlashib, milliy tilga moslashtiriladi. Bu holat ikki til terminologiyasining struktur xususiyatlaridagi asosiy farqni tashkil etadi.

Beshinchidan, o'zbek va fransuz terminologiyasida ekvivalentlik masalasi har doim ham bevosita so'zma-so'z moslikka tayanmaydi. Karer, shaxta, roche/pierre, rud/minerai kabi birliklar qiyosida funksional va kontekstual moslik muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, elektron lug'atlar, til korpuslari va standartlashtirish tizimlari konchilik terminologiyasini tartibga solish, tavsiflash va amaliy muomalaga joriy etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois kelgusida o'zbek tilida konchilik terminlarini tizimlashtirish, ikki tilli terminologik lug'atlar yaratish, xalqaro standartlarga mos milliy terminografik bazani shakllantirish hamda korpus asosida sohaviy terminlarning qo'llanishini o'rganish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ko'shimov, Sh. Termin va kasbiy leksika masalalariga oid ilmiy qarashlar.
2. Narxodjaeva, X. Terminning lingvistik xususiyatlari haqidagi tadqiqotlar.
3. Begmatov E. O'zbek tilida terminologiya masalalari. - Toshkent: Fan, 1981.
4. Sodiqov Q. Terminologiya va terminografiya asoslari. - Toshkent: Fan, 2010.
5. Ne'matov H., Yo'ldoshev B. Til va terminologiya masalalari. -Toshkent: Fan, 2007.
6. Abdurahmonov G'. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2012.
7. O'zbek tilining milliy korpusi. Elektron resurs: <https://uzbekcorpus.uz>
8. Cabré M.T. La terminologie : théorie, méthode et applications. - Paris: Armand Colin, 1998.
9. Rey A. La terminologie : noms et notions. - Paris: Presses Universitaires de France, 1992.
10. Lerat P. Les langues spécialisées. - Paris: Presses Universitaires de France, 1995. Xakimova D. Y. O'zbek va fransuz tillari leksik sistemasida konchilik terminlarining o'rni. "Ijtimoiy bilimlar va texnik-muhandislik Turk dunyosi" Xalqaro simpozium. Renaissance Educational university. Toshkent 5-6 may, 2025
11. Khakimova D. Y. Composition of the mining vocabulary, sources of origin and functional classification. Theoretical & Applied Science, международный научный журнал, Philadelphia, USA , №3, 107 2022 C.689 - 691.

